



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



NARIMANOV Bekzod Abduvaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson
huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) o'rinbosari,
yuridik fanlar doktori, dotsent
E-mail: bekzodnarimanov84@gmail.com

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): NARIMANOV B.A. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish muammolari va ularni takomillashtirish istiqbollari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2025) B. 18-25.

 5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyatini huquqiy tartibga solishning dolzarb masalalari chuqur tahlil qilinadi. Avvalo, NNTlarning jamiyatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'рни va ahamiyati, ular uchun yaratilgan huquqiy asoslarning mazmun-mohiyati hamda amaliyotda uchrayotgan muammolar atroficha ko'rib chiqiladi. Jumladan, NNTlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini belgilash, moliyaviy manbalarini shakllantirish va ular ustidan nazorat mexanizmlarini amalga oshirishda mavjud qiyinchiliklar tahlil etiladi. Shuningdek, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari, ularning samaradorligi hamda mavjud to'siqlar yoritib beriladi. Maqolada, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi o'rganilib, NNT faoliyatini tartibga solishda milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish istiqbollari, jumladan, huquqiy asoslarni liberallashtirish, tashkilotlar uchun qulay muhit yaratish, ularning ijtimoiy loyihalarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati, huquqiy tartibga solish, xayriya, homiylik, huquqiy maqom, qonunchilikni takomillashtirish, huquqiy erkinliklar, xalqaro tajriba.

НАРИМАНОВ Бекзод Абдувалиевич

Заместитель Уполномоченного
Олий Мажлиси Республикаси Ўзбекистан
по правам человека,
доктор юридических наук, доцент
E-mail: bekzodnarimanov84@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне анализируются актуальные вопросы правового регулирования деятельности негосударственных некоммерческих организаций (ННО). Прежде всего рассматриваются роль и значение ННО в формировании гражданского общества, содержание и сущность созданных для них правовых основ, а также практические проблемы, возникающие в процессе их реализации. В частности, исследуются порядок государственной регистрации ННО,

определение их организационно-правовых форм, формирование финансовых источников и существующие трудности в механизмах контроля за их деятельностью. Кроме того, освещаются вопросы взаимодействия государственных органов и институтов гражданского общества, эффективность данного сотрудничества, а также имеющиеся препятствия. В статье также изучается передовой опыт зарубежных стран и определяются перспективы дальнейшего совершенствования национального законодательства в сфере регулирования деятельности ННО, в том числе либерализация правовых основ, создание благоприятных условий для организаций, обеспечение их активного участия в реализации социальных проектов. На основе анализа выдвигаются практические предложения и рекомендации, направленные на обеспечение более свободного, эффективного и устойчивого развития деятельности ННО в Узбекистане.

Ключевые слова: Негосударственные некоммерческие организации, гражданское общество, правовое регулирование, благотворительность, спонсорство, правовой статус, совершенствование законодательства, правовые свободы, международный опыт.

BEKZOD Narimanov Abduvalievich

Deputy Commissioner of the Oliy Majlis of the
Republic of Uzbekistan for Human Rights,
Doctor of Law, Associate Professor
E-mail: bekzodnarimanov84@gmail.com

PROBLEMS OF LEGAL REGULATION OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS' ACTIVITIES AND PROSPECTS FOR THEIR IMPROVEMENT

ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of the pressing issues related to the legal regulation of non-governmental non-profit organizations (NGOs). It examines the role and importance of NGOs in the development of civil society, the content and essence of the legal framework established for them, as well as the practical problems encountered in its implementation. In particular, the study addresses the procedures for state registration of NGOs, the determination of their organizational and legal forms, the formation of financial resources, and the existing difficulties in the mechanisms of oversight over their activities. In addition, the article highlights the interaction between state bodies and civil society institutions, the effectiveness of such cooperation, and the obstacles that hinder it. The paper also explores the advanced experience of foreign countries and outlines prospects for further improvement of national legislation in regulating NGO activities. This includes the liberalization of legal frameworks, the creation of favorable conditions for organizations, and ensuring their active participation in the implementation of social projects. Based on the analysis, practical proposals and recommendations are developed, aimed at ensuring freer, more effective, and sustainable development of NGO activities in Uzbekistan.

Keywords: Non-governmental non-profit organizations, civil society, legal regulation, charity, sponsorship, legal status, improvement of legislation, legal freedoms, international experience.

Bugungi kunda jahon miqyosida yuz berayotgan geosiyosiy beqarorlik, iqlim o'zgarishi, migratsiya jarayonlari, ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy inqirozlar fonida aholi farovonligini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat organlari bu vazifalarni to'liq qamrab olishi qiyin bo'lgan sharoitda fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, jamoat fondlari ijtimoiy foydali tashabbuslarni amalga oshirishda muhim va samarali mexanizm sifatida maydonga chiqmoqda.

Shu bilan birga, jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, jamoat fondlarining faoliyati nafaqat xayriya yordamlarini ko'rsatish bilan cheklanmay, balki aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va inklyuziv rivojlanishni ta'minlashda ham hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois zamonaviy sharoitda jamoat fondlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularning faoliyatini davlat va xususiy sektor bilan hamkorlikda muvofiqlashtirish, ayniqsa, ijtimoiy foydali loyihalarni amalga oshirishda ularning institutsional salohiyatini kuchaytirish dolzarb strategik vazifaga aylanmoqda.

Qadimgi davrda nodavlat sektori Rimda muhtojlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alimenta muassasalari o'z davrining jamoat fondlari vazifasini o'tagan [1].

Fikrimizcha, alimenta tizimini nodavlat sektorning "ibtidosi" sifatida baholash faqat ramziy ma'noda to'g'ri bo'lishi mumkin. Uning huquqiy va institutsional asoslari fuqarolik jamiyatiga xos mustaqillik mezonlariga emas, balki imperatorlik ijtimoiy siyosatining normativ paradigmasiga tayanadi. Shu sababli, mazkur tizimni nodavlat sektorning ilk namunalaridan biri sifatida emas, balki davlat va jamoat tashabbusi o'rtasidagi o'tish (gibrid) model sifatida ko'rib chiqish ilmiy jihatdan to'g'riroq bo'ladi.

M. Moxovikova o'zining dissertatsiyasida O'zbekistonda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar o'zaro hamkorligini tadqiq qila turib O'zbekistonda NNTlar rivojlanishining ilk bosqichlarini Hukumat ijtimoiy faolligini NNT formatidagi ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatga aylantirilganligi bilan asoslantiradi. Shuningdek, u O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik, jamoat fondi kabi mexanizmlar va zamonaviy ish shakllaridan foydalanishga qaramay "sovetcha" tajribasi asosida davlat tomonidan yirik jamoat tashkilotlarini tuzish kabi o'ziga xos rivojlanish yo'lini keltirib o'tadi [2].

Bizningcha, mazkur yondashuvda ijtimoiy ishonch, ko'ngilli faoliyat, mikrokorporativ birdamlik, jamoat nazorati elementlari yetarli darajada hisobga olinmagan. Shu bois, o'tish davridagi fuqarolik subyektlarining adaptatsiya jarayoni sifatida baholanishi kerak. Hatto davlat tomonidan yaratilgan yirik jamoat tashkilotlari ham ijtimoiy talab va fuqarolik faoliyatining muayyan institutsional ifodasi bo'lgan. Muallifning fikri davlatning roliga nisbatan ortiqcha institutsional vazn bergani holda, fuqarolik jamiyatini "passiv ijrochi" sifatida talqin qiladi. Holbuki, O'zbekistondagi NNTlar faoliyati 2017-yillardan boshlab huquqiy plyuralizm, ijtimoiy sheriklik mexanizmi, ijtimoiy buyurtma orqali yangi institutsional asosga ko'chgan. Bu esa uchinchi sektorni davlat siyosati obyektidan uning hammuallifiga aylanganini ko'rsatadi.

Tahlillarga ko'ra 2008-yilda 7 ta NNT va fuqarolik jamiyati institutlariga 379 mln. so'm davlat granti ajratilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatgich 231 ta 6 mlrd. 550 mln. so'm, 2022-yilda esa 160 ta tashkilotga 12 mlrd. so'm mablag' ajratilgan.

A. Danevskaya fikriga ko'ra, ushbu tashkiliy-huquqiy shaklning asosiy muammosi shundaki, fondning o'zi aslida o'z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshira olmaydi [3].

MDH davlatlarida jamoat fondlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etgan olim Ye. Laevskaya qayd etishicha, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekistonda jamoat birlashmalari faoliyatini tartibga soluvchi to'rt darajali qonunchilik tizimi shakllangan: Konstitutsiya birlashish huquqini mustahkamlaydi; Fuqarolik kodeksi notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini belgilaydi, ular jumlasiga jamoat birlashmalarini kiritadi; "Notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun ko'p jihatdan Fuqarolik kodeksi qoidalarini takrorlaydi, shuningdek, notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini tartibga soladi; "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonun jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni ta'minlaydi [4].

Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga ko'ra, davlat tashkilotlarining muassasa, unitar korxona kabi turlari sanalgan. Shuningdek, Budget kodeksida Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalar, budget

tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi va boshqa budget bilan yoki davlat tashkiloti bilan bog'liq jamg'armalar qayd qilingan.

Ammo **bu kabi jamg'armalar ham aslida Fuqarolik kodeksi bo'yicha davlat tashkilotlariga kelib tushadigan pul mablag'larini yig'ish va uni tasarruf qilish funksiyalari bilan shug'ullanadigan muassasa tashkiliy-huquqiy shaklida yoki muassasaning yuridik shaxs bo'lmagan holda tashkil qilingan shaklidir.**

Soliq Kodeksning 378-moddasidagi "xayriya va ekologiya jamg'armalari" deganda albatta qonun chiqaruvchi **budget muassasalarini emas, balki nodavlat notijorat tashkilot bo'lgan xayriya va ekologiya jamg'armalari nazarda tutmoqda.**

Shuning uchun ham mazkur normada "xayriya va ekologiya jamg'armalari" atamasi keng ma'noda qo'llanilgan bo'lib, u **asosan nodavlat notijorat tashkilotlariga taalluqli bo'lsa-da, ayrim hollarda davlat tomonidan tashkil etilgan jamg'armalarni ham qamrab olishi mumkin,** bu esa ularning soliq masalalari tegishli maxsus qonunchilik va budget tartiblari bilan birgalikda tartibga solinishini nazarda tutadi.

Fuqarolik kodeksining **511-moddasida xayr-ehson tushunchasi mavjud bo'lib, unga ko'ra** umumfoydali maqsadlarda qilingan hadya xayr-ehson hisoblanadi. Xayr-ehson fuqarolarga, davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga va shunga o'xshash boshqa muassasalarga, xayriya, ilmiy va o'quv muassasalariga, fondlarga, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalariga, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarga, shuningdek davlatga va boshqa fuqarolik huquqi subyektlariga qilinishi mumkin.

"Homiylik to'g'risida"gi Qonunda ham (3-moddasi) **homiylik xayriyalari** — homiylik maqsadlariga yo'naltiriladigan mol-mulk, shu jumladan pul mablag'lari tushunchasi mavjud.

Biroq, qonunchilikda xayriya tushunchasi o'zi alohida so'z sifatida tushunchasi mavjud emas.

Umuman olganda Fuqarolik kodeksining 511-moddasi va "Homiylik to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra xayriyaga ya'ni **xayr-ehson yoki homiylik xayriyasiga** ekologiya bilan bog'liq faoliyat ham kiradi.

Xususan, "Homiylik to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq homiylik quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

aholini tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarning oldini olishga tayyorlash;

terrorchilik harakatlari, tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar natijasida jabrlanganlarga yordam ko'rsatish;

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish.

Ikkinchi jihat shuki, Soliq kodeksining 378-moddasida Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydigan daromadlarga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan soliq to'lovchilarga beriladigan nafaqalar, shuningdek pul mablag'lari tarzidagi yordamning boshqa turlari, biroq soliq davri mobaynida **o'n besh million so'mdan oshmagan holda** kiritilgan.

Bu yerda ham qonun chiqaruvchi aynan nega **o'n besh million so'mni tanlab olingani biror o'lchov yoki miqdor bilan qiyoslashimiz qiyin.**

Masalan, **bir fuqaro davolanishi, masalan xorijda ma'lum bir inson organini ko'chirishi uchun yuz million so'm talab qilinadi.** Bunda, ushbu shaxsga aytaylik "Sahovat" nomli NNT yuz million so'm berdi.

Lekin, Soliq kodeksining 378-moddasiga ko'ra, "Sahovat" nomli NNT mazkur xayriyani amalga oshirgani uchun soliq agenti sifatida jismoniy shaxslardan daromad solig'i sifatida taxminan **o'n million so'm soliqni soliq organlariga o'tkazishga majbur.** Yoki ushbu davolanishga muhtoj

bo'lgan fuqaro o'z yonidan o'n million so'm soliqni soliq organlariga o'tkazish lozim. Aslida soliq eng kam ta'minlangan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash uchun ham yig'iladi.

Buni boshqa misollarda ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda bir fuqaroning kleyonkalardan yasalgan chaylada oilasi bilan yashayotganligi ko'rsatildi [5–8]. Unga eng minimal sharoitlari bo'lgan uy qurib berish uchun yuz million so'm miqdorda mablag' talab qilinadi. Unga "Sahovat" nomli NNT uy-joy qurib olish uchun yuz million so'm berdi. Lekin, Soliq kodeksining 378-moddasiga ko'ra, "Sahovat" nomli NNT mazkur xayriyani amalga oshirgani uchun soliq agenti sifatida jismoniy shaxslardan daromad solig'i sifatida taxminan o'n million so'm soliqni soliq organlariga o'tkazishga majbur. Yoki ushbu uy-joy qurishga muhtoj bo'lgan fuqaro o'z yonidan o'n million so'm soliqni soliq organlariga o'tkazish lozim [9].

Soliq kodeksining 318-moddasida Ushbu Kodeksning 58-moddasida ko'rsatilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda notijorat tashkilotining quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) notijorat tashkilotlarining ta'minoti va ushbu Kodeksning 48-moddasida ko'rsatilgan ustav faoliyatini amalga oshirishi uchun maqsadli tushumlar;

2) kursdagi ijobiy farq summasining kursdagi salbiy farq summasidan ortiq qismi;

3) aholining diniy maqsadda foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad.

Ushbu moddaning qoidalari faoliyatni **ijtimoiy sohada amalga oshiruvchi notijorat tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.**

Soliq kodeksining 59-moddasida ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar keltirib o'tilgan.

Soliq Kodeksining 337-moddasida Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilarga 0 foiz stavkada foyda solig'i miqdori belgilangan.

Biroq, notijorat tashkiloti **ham Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi bo'lganda ham notijorat tashkilot sifatida tashkil qilinganda soliq kodeksida belgilangan ikkala imtiyozdan foydalanishining salbiy oqibatlar mavjud emas.**

Chunki soliq to'lovlaridan qochishni maqsad qilgan yuridik shaxs, aynan ikkita faoliyat uchun ikkita yuridik shaxs tashkil qilish orqali ham soliq to'lovlarini chetlab o'tish imkonini mavjud.

Bundan tashqari, masalan nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qiluvchi notijorat tashkiloti **Soliq kodeksining 59-moddasida nazarda tutilgan** ijtimoiy sohada faoliyatni tegishli litsenziya asosida tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar, ta'lim va jismoniy tarbiyaga oid xizmatlarni ko'rsatishi mazkur tijorat tashkilotini maqsadiga yanada ko'proq darajada erishishini ta'minlaydi.

Ushbu faoliyatlardan tushgan tushumlar notijorat tashkilotning ustav maqsadlari yo'lida sarflanadi.

Shunga ko'ra, Soliq kodeksining 318-moddasidagi ushbu moddaning qoidalari faoliyatni **ijtimoiy sohada amalga oshiruvchi notijorat tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmasligi** bo'yicha normani olib **tashlash taklif qilinadi.**

"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida **Nodavlat notijorat tashkiloti ro'yxatdan o'tkazuvchi organga**, davlat soliq xizmati organlariga va davlat statistikasi organlariga o'z faoliyati to'g'risida belgilangan tartibda **hisobotlar taqdim etishi** shartligi belgilangan.

Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 239-moddasida Nodavlat notijorat tashkilotlarining o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etmasligi, o'z vaqtida taqdim etmasligi yoki belgilanmagan shaklda taqdim etishi, o'z faoliyati to'g'risida bila turib noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etishi, xuddi shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining axborotni, shu jumladan ular tomonidan mol-mulk va pul mablag'laridan

foydalanilishi to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmasligi — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilangan.

Biroq, yuqoridagi qonun va kodeksda Nodavlat notijorat tashkilotining **yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari ro'yxatga oluvchi organga hisobot topshirishi lozimligi to'g'risida talablar** yoki ular tomonidan hisobotlar taqdim qilinmagan taqdirda javobgarlik sanksiyalari **belgilanmagan**. Garchi qonunchilikning mazmun-mohiyati mantiqiylik jihatdan Nodavlat notijorat tashkilotining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari ro'yxatga oluvchi organga hisobot topshirishi to'g'risida ma'no berish mumkin bo'lsa-da, buning mustahkam huquqiy asosi mavjud emas [10].

Amaliyotda esa, adliya organlar tomonidan Nodavlat notijorat tashkilotining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari ro'yxatga oluvchi organga hisobot topshirilmaganligi uchun ma'muriy javobgarlikka sodir etilganligi to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish va sudlar tomonidan esa, ushbu bayonnoma asosida ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida qaror qabul qilish holatlari ko'p uchraydi [11].

Yuqoridagilarga ko'ra **quyidagilar taklif qilinadi:**

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi Qonun va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksga tegishli ravishda Nodavlat notijorat tashkilotining **yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari ro'yxatga oluvchi organga hisobot topshirishi lozimligi to'g'risida hamda ular tomonidan hisobotlar taqdim qilinmagan taqdirda javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar** kiritish lozim.

Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun qo'llaniladigan normalar uning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari uchun tatbiq qilinishi yoki qilinmasligi to'g'risida qator chalkashliklar jamoat fondlarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida ham mavjud.

Xususan, “Jamoat fondlari to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasida Fond vasiylik kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

fond budjetini tasdiqlash;

fondning yillik balansini, yillik moliyaviy hisobotini, shu jumladan fond boshqaruvining o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash.

Fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari ham qonunchilikka ko'ra, mustaqil homiylik mulklari va mablag'larini jalb qiladi, mustaqil tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi hamda alohida tartibda o'zi homiylik faoliyati bilan shug'ullanadi.

Shunga ko'ra, Fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalarida ham: uning budjeti;

fondning yillik balansini, yillik moliyaviy hisoboti;

bo'linma faoliyati to'g'risidagi hisoboti mavjud bo'ladi.

Amaliyotda fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari ko'p bo'lganligi sababli **bo'linmaning yuqoridagi budjeti, fondning yillik balansini, yillik moliyaviy hisoboti va bo'linma faoliyati to'g'risidagi hisoboti vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlanmaydi, shuningdek**, “Jamoat fondlari to'g'risida”gi Qonunning 27-moddasidagi talab ham bevosita uning bo'linmalariga taalluqli emas.

Biroq, ushbu normalarning fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalariga **taalluqli bo'lmasligi ko'p hollarda ushbu nomalarni chetlab o'tgan holda hamma harakatlarni bo'linmalar orqali amalga oshirish hamda natijada vasiylik kengashining nazoratidan uning bo'linmalari chiqib ketishi kabi holatlar kuzatiladi**. Oqibatda, fond mol-mulki vasiylik kengashining nazoratidan chiqib ketgan holda uning bo'linmalari orqali istalgan maqsadlarga sarflanish va fond maqsadiga zid ravishda sarflanishiga olib keladi.

Demak, ushbu masalada huquqiy baza yetarlicha aniq belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, **amaliyotda normalarni turlicha talqin qilish va ularni to'g'ri qo'llamaslik holatlari** kuzatiladi. Bu esa ayrim hollarda fond faoliyati ustidan nazoratning zaiflashishiga va qonun normalarining maqsadga muvofiq amal qilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi holatni "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasida keltirilgan Fond boshqaruvining fond vasiylik kengashi bilan kelishuv asosida **fond xodimlarining shtat jadvali va ish haqi miqdorini belgilash** kabi vakolatini amaliyotga tatbiq qilishda ham kuzatish mumkin.

Demak, fondning o'zida xodimlarining shtat jadvali va ish haqi miqdorini belgilash faqat Fond boshqaruvining fond vasiylik kengashi bilan kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Biroq, fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari uchun ham ushbu norma taalluqliligi bo'yicha qoidalar mavjud emas.

Buning natijasida, fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari Fond boshqaruvi va fond vasiylik kengashi nazoratini **chetlab o'tgan holda istalgancha bo'linma xodimlarining shtat jadvali va ish haqi miqdorini belgilashi** hamda bo'linmaning pul mablag'larini maqsadsiz va ko'p miqdorda xodimlar ish haqiga sarflashi mumkin.

Amaliyotda bu kabi munosabatlar fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalarining nizomida tartibga solinadi [12]. Lekin, bo'linma nizomida bo'linma xodimlarining shtat jadvali va ish haqi miqdorini belgilashni bo'linmaning yakka boshchilik asosida rahbarlik qiluvchi organiga yuklash yoki fondning yakka boshchilik asosida rahbarlik qiluvchi raisi bilan kelishgan holda belgilash qayd qilinsa, ro'yxatga oluvchi organ bu noto'g'ri deb rad eta olmaydi. Natijada, bo'linma mol-mulki fond maqsadi va vasiylik kengashi idorasiga zid ravishda sarflanishiga olib kelinadi.

"Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning **24-moddasida** Har yilgi ma'muriy xarajatlarning jami summasi, shuningdek fondning vasiylik kengashi hamda taftish komissiyasi a'zolariga haq to'lash hamda ularning o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarini kompensatsiya qilish fond barcha xarajatlari summasining **yigirma foizidan oshmasligi** kerakligi;

Shuningdek, 25-moddasida Fond har yili oldingi yildagi o'z faoliyati to'g'risida quyidagilarni o'z ichiga olgan **hisobot e'lon qilishi**;

Bundan tashqari, 33-moddasida Fond qonunchilikka muvofiq har yili o'z faoliyatini **auditorlik tekshiruvidan o'tkazishi** hamda **auditorlik tashkilotini fondning vasiylik kengashi tanlashi** qayd qilingan.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 239¹-moddasida yuqoridagi talablarni buzganlik uchun jarimalar belgilangan.

Biroq, mazkur qonunda ham, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 239¹-moddasida ham qonunning 24-25 va 33-moddalaridagi talablar Fondning **yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalariga nisbatan tatbiq qilinishi bo'yicha qoidalar mavjud emas.**

Amaliyotda ushbu qoidalarni Fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalariga nisbatan tatbiq qilinib, bunga rioya qilmagan bo'linma rahbarlariga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari belgilangan holatlari ko'plab uchraydi. Ammo, bizning fikrimizcha bu huquqni qo'llash amaliyoti maqsadga muvofiq bo'lsa-da, to'liq huquqiy deb aytib bo'lmaydi.

Masalan, Fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan hududlarda 20 ta alohida bo'linmalari bo'lsa, ularni barchasida auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini fondning vasiylik kengashi tanlashi kerakmi?

Bundan tashqari, Fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalarning har yili oldingi yildagi o'z faoliyati to'g'risidagi hisoboti bilan birga e'lon qilinadimi yoki bo'linmalar alohida hisobot e'lon qiladimi, bo'linmalar hisobotini e'lon qilmaganlik uchun kim ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak, bo'linma rahbarimi yoki fond rahbarimi (amaliyotda

bo'linma rahbari ma'muriy javobgarlikka tortiladi)? Shuningdek, bo'linma hisoboti e'lon qilinishi shartmi? Degan savollarga qonunchilikda aniq javob mavjud emas.

Bu munosabatlar qonunchilik bilan tartibga solinmagandan keyin, Fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari yuqoridagi normalarga rioya qilmaslik imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Buning natijasida **bo'linma faoliyati auditorlik tekshiruvidan o'tkazilmasligi, hisoboti keng jamoatchilikka e'lon qilinmasligi va bo'linmalar mol-mulki nazoratsiz ravishda maqsadsiz sarflanishi xavfi yuzaga keladi.**

Yuqoridagilarga asosan taklif qilinadi:

1. "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga Fond vasiylik kengashining vakolatlariga fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan **alohida bo'linmalari budjetini tasdiqlash, fondning yillik balansini, yillik moliyaviy hisobotini**, shu jumladan **bo'linma faoliyati to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash** kabi normalarni kiritish taklif qilinadi.

2. "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasiga fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalari xodimlarining shtat jadvali va ish haqi miqdorini belgilash **Fond boshqaruvining fond vasiylik kengashi bilan kelishuv asosida amalga oshirilishi bo'yicha qo'shimcha kiritish.**

3. "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning **24-25 va 33-moddalaridagi** har yilgi ma'muriy xarajatlarning jami summasi, hisoboti e'lon qilish, auditorlik tekshiruvdan o'tkazishi va auditorlik tashkilotini tanlab olish talablarini fondning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan **alohida bo'linmalariga nisbatan qo'llash bo'yicha** qonunchilikka qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish taklif qilinadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Salamon L. M. The rise of the nonprofit sector //Foreign Aff. – 1994. – T. 73. – С. 109.
2. Моховикова М.Н. Взаимодействие государства и негосударственных некоммерческих организаций в Узбекистане. АВТОРЕФЕРАТ дис... канд. полит. Наук (23.00.02) / Моховикова Мария Николаевна; МГИМО. – Москва, 2016. 26-27 сс.
3. Даневская Аниита Муратовна // О некоторых особенностях определения конституционно-правового статуса общественных фондов // Известия ВУЗов. Поволжский регион. Общественные науки. 2016. №4 (40). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-nekotoryh-osobennostyah-opredeleniya-konstitutsionno-pravovogo-statusa-obschestvennyh-fondov>
4. Лаевская Е. В., Ананич С. М. Некоторые проблемы законодательства Республики Беларусь об общественных организациях (объединениях). – 2015.
5. Ne'matov J.N. Sud-huquq islohotlari sharoitida ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish masalalari. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari (Maqolalar to'plami) / Mas'ul muharrir Ye.V.Kolenko. –Toshkent, "TOP IMAGE MEDIA" 2020. –536 b.
6. Хван Л.Б. Законодательство об административных процедурах и регистрация ННО./ <https://www.gazeta.uz/ru/2020/02/14/administrative-procedures/>
7. 2022-yilda NNT va fuqarolik jamiyati institutlarining qariyb 98 milliard so'mlik loyihalari qo'llab-quvvatlandi // URL: https://uza.uz/uz/posts/2022-yilda-nnt-va-fuqarolik-zhamiyati-institutlarining-qariyb-98-milliard-somlik-loyihalari-qollab-quvvatlandi_445049
8. Internet and social media users in the world 2022 - Statista<https://www.statista.com>
9. Добринская Д. Е., Мартыненко Т. С. Цифровой разрыв в России: особенности и тенденции //Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перемены. – 2019. – №. 5. – С. 100-119.
10. O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi rasmiy hisoboti. (2021)
11. Kilic I. Paradoxes of Feminist Stances in "New Turkey": Reconceiving NGO-State Relationships in the Case of KAMER. – 2019.
12. Sunata U., Tosun S. Assessing the civil society's role in refugee integration in Turkey: NGO-R as a New Typology //Journal of Refugee Studies. – 2019. – T. 32. – №. 4. – С. 683-703.

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416